



# O'zbekiston Respublikasining Qonuni

**Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

## Bojxona kodeksiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi

To'lanishi bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq bo'lmagan bojxona yig'imlarini **bojxona hududida** to'lash belgilandi.



## Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra:

Kameral soliq tekshiruvida quyidagi **soliq nazorati** tadbirlarini o'tkazish taqiqlandi:



- ✓ soliq to'lovchi hududiga kirish
- ✓ soliq to'lovchi hududi va binolarini ko'zdan kechirish
- ✓ soliq to'lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish
- ✓ soliq to'lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo'yish

## Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra:

Endilikda soliqqa oid huquqbuzarlik uchun 3 yil ichida javobgarlik masalasi ko'rib chiqilishi kerak, 3 yildan keyin shaxs huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas *(ilgari 5 yil edi)*.



## Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra:



Ota-onalar har qanday yoshdagi farzandlarining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida o'qishi uchun to'lagan pullari **daromad solig'idan ozod qilinadi**




*Ilgari faqat 26 yoshgacha bo'lgan farzandlar uchun to'langan pullardan daromad solig'i olinmagan*



## Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra:

Quyidagilarga qo'llaniladigan soliq imtiyozlari **2028-yil 31-dekabrgacha** uzaytirildi:



- ✓ O'zbekiston rezidentlari va nerezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalar bo'yicha dividendlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan **daromad solig'idan ozod qilinadi;**
- ✓ O'zbekistonning nerezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalari bo'yicha dividendlar tarzidagi daromadlariga foyda solig'i bo'yicha **5 foiz miqdorida soliq stavkasi qo'llaniladi;**
- ✓ O'zbekistonning rezidentlari va nerezidentlari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo'jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo'yicha foizlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan **daromad solig'idan** hamda **foyda solig'idan ozod etiladi.**

**E'tiboringiz uchun  
rahmat !**

